



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRINING
BUYRUG'I**

2021-yil 26-avgust

373 -son

Toshkent sh.

**Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tizimida
Komplayens nazorat tizimini joriy etish
va korrupsiyaga qarshi kurashishni
takomillashtirish to'g'risida**

ISO 37001:2016 "Korruptsiyaga qarshi kurashish menejment tizimlari - foydalananish bo'yicha xalqaro talablar va tavsiyalar" xalqaro standart talablari va tavsiyalarini inobatga olgan holda, Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tizimida korruptsiyaga qarshi komplayens nazoratni joriy etish maqsadida .

B U Y U R A M A N:

1. Quyidagilar:

- "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tizimida korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi Nizom" 1-ilovaga;
- "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tizimida korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha koordinator to'g'risidagi Nizom" 2-ilovaga;
- "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tizimida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizom" 3-ilovaga;
- "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tizimida korruption xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti" 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilansinki, mazkur buyruq bilan tasdiqlangan hujjatlar:

Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi markaziy apparatining barcha boshqarma va bo'limlari, vazirlik huzuridagi tashkilotlar, kasbiy ta'limi rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmalari, vazirlik tizimidagi oliy va o'rta-maxsus, professional ta'lif muassasalari uchun majburiy hisoblanadi;

respublika hududida joylashgan xorijiy oliy ta'lif muassasalari va ularning filiallari, boshqa vazirlik va idoralar tasarrufidagi oliy va o'rta-maxsus, professional ta'lif muassasalari hamda nodavlat oliy ta'lif muassasalari uchun tavsiyaviy harakterga ega.

3. Vazirlik tizimidagi oliy ta'lim muassasalari (filiallari) rektor(direktor)lari, huzuridagi tashkilotlar hamda hududiy boshqarmalar boshliqlari "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi Nizom", "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha koordinator to'g'risidagi Nizom", "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizom", "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimida korruption xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti"ning mazmun-mohiyati haqida rahbar-xodimlar, professor-o'qituvchilar hamda talaba-yoshlarga tushuntirish ishlarini tashkil etsin.

4. Vazirlik tizimidagi oliy ta'lim muassasalari (filiallari) rektor(direktor)lari, huzuridagi tashkilotlar hamda kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmalari boshliqlari zimmasiga:

 mavjud korruption xavf-xatarlar asosida o'zlarining korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini ishlab chiqishi va joriy etishi;

 korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha koordinator/mas'ul shaxs faoliyatini yo'lga qo'yish;

 korruption xavf-xatarlarni minimallashtirish borasida samarali profilaktik choralarini ishlab chiqish;

 korruption xavf-xatarlar darajasini baholash uslubiyotidan foydalangan holda korruption xavf-xatarlar darajasini baholab borishni tashkil etish;

 bu borada amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni har chorakda (*chorak tugagandan keyingi oyning 10 sanasigacha*) vazirlikning Komplayens-nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limiga taqdim qilib borish vazifalari yuklatilsin.

5. Komplayens-nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (H.Abduraxmonov), Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi (M.Esanov) bilan birqalikda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi tashkilotlar hamda tizimdagi oliy ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning joriy holati bo'yicha o'rganishlar o'tkazilishini ta'minlasin va o'rganish natijalari bo'yicha vazirlik rahbariyatiga ma'lumot kiritib borsin.

6. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.



Vazir

A. Toshkulov